

O‘YIN - MAK TABGACHA TA’LIM JARAYONINING FAOL SHAKLI SIFATIDA

Toshpo‘latova Sevinch O‘ral qizi
Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi
2-23-guruh talabasi

Maqsuda Norbosheva

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dots.v.b.
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Ilmiy rahbar

Annotatsiya

Maqolada o‘yin - maktabgacha ta‘lim jarayonining faol shakli ekanligi haqida so‘z yuritilgan. Ta‘lim-tarbiya jarayonida har bir bolani shaxs sifatida tan olish, uning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hozirgi kunning talabi hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim mazmuni va metodlari bola shaxsini shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olinish jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘yin, ta‘lim, faol, shakl, tarbiya, shaxs.

Maktabgacha davr - bu bolada motivasiya, o‘z-o‘zini namoyon etish, barpo qilish, o‘z-o‘zini tatbiq eta olish, nimanidir bajarish xohish-istagi, intilishi rivojlanadigan davrdir. Ushbu davrda bola shaxs sifatida rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Aynan maktabgacha davrda bolaning kelajakdagi barcha faoliyat turlarida va umuman hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beruvchi umuminsoniy xislatlari shakllanadi. Bularning barchasi bolaning shaxsiy faolligi orqali rasm chizish, qurish-yasash, musiqa va alabatta o‘yin faoliyatida rivojlanadi[1]. O‘yin - kichik bolalarni tarbiyalashdagi an‘anaviy va taniqli uslub bo‘lib, u bolaning tabiiy ehtiyojlar va xohish-istiklariga mosdir, shuning uchun bolalar real hayotda hali bilmagan narsalarini o‘yinda bajonidil bajaradilar. Kichik yoshdagi bolalar o‘yiniga rahbarlik esa mutaxassisdan alohida bilim, malaka va amaliy tayyorgarlikni talab etadi[2]. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning hozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, hayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go‘yo bir mo‘jizadek ko‘rinadi. Natijada ular ham o‘zlarining turli o‘yinlari jarayonida o‘xshatma qilib (ya’ni analogik tarzda) har xil xayoliy narsalarini o‘ylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli xayoliy narsalarini o‘ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o‘zlarining turli o‘yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarini emas, balki ayni chog‘da ehtiyojlar talab qilayotgan narsalarini ham aks ettiradilar[3]. Bolalarning o‘yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin:

bolalarning tashqi muhitdagi narsa va hodisalarini aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o'zgartiruvchan jarayondir.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvafaqqiyatga erishish shakllanadi va mustahkamlanadi. Katta maktabgacha yoshda konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi[4]. O'yinda bola elementar mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalarni anglay boshlaydi, amaliy tafakkur rivojlanan boradi. Shuningdek, o'yin faoliyatni bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan ta'lif faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi[5].

Shunday ekan bolalarni maktabgacha yosh davridanoq turli faoliyatlariga tayyorlash orqali shaxs sifatida rivojlanib borishiga, ularda milliy, umumiyyoniy qadriyatlariga hamda maktabgacha yoshdagi bolalarga rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablariga mos ravishda rivojlanishini ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Ba'zi bir ota-onalar borki bolalarini maktabgacha ta'lif tashkilotlariga berishadida tarbiyachiga qoyib qoyadi uni tarbiyasi bilan shugullanishini. Tarbiyachi olayotgan oyligini oqlasin bekorga pul toleyapmizmi deyishadi[6]. Aslida bolani qaysi oyin faoliyatlarini qiziqtirishni ota onasi bilishi unga komaqlashishi zarur. Farzandi kelajakda yetuk inson boliishi uchun ota onasi ozroq bolsa ham vaqt ajratishi uni qalbiga, qiziqishlariga, hohish istaklariga etibor boliishi lozim. Farzandi bilan koproq shugullanishi darkor[7]. U bilan turli oyinlar oynashi kerak. Uni qiziqishlarini bilib osha narsaga to'gri yonaltirishi va komaqlashishi zarur. Bola oz hohish istaklarini qorqmasdan ota-onasiga ayta olishi uchun bolaga koproq e'tiborli boliш kerak[8]. Farzandini qilayotgan narsalaridan kamchilik qidirmasdan uni yanada raqbatlantirishi zarur. Chunki har bir xato yangi san'atdir.

ADABIYOTLAR:

- Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 66-67.
- Норбошева, М. А., & Норбошева, М. А. (2018). Реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. In Фундаментальные и прикладные исследования: гипотезы, проблемы, результаты (pp. 25-29).
- Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни. Педагогика ва психология яда инновациялар, 9(3), 7.
- Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(4).

5. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 297-303.
6. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Педагогика ва психологияда инновациялар, 11(3).
7. Norbosheva, M. (2020). Issues of moral perfection and spiritual height in the poem of “Kutadgu Bilig” by Yusuf Has Hajib. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(2), 2020.
8. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. O ‘ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O ‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI NİZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 219.